WORLD CONFERENCES
GERMANY

Germany Conference on Experience and Research
Volume 02, Issue 09, 2026

TAJRIBAVIY UYQUSIZLIK SHAROITIDA KALAMUSHLAR GIPOFIZ BEZIDAGI MORFOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Добавлено примечание ([*1]):

Mamasoliyeva Nazokatxon Xasanboyevna
Farg‘ona jamoat salomatligi institute, Farg‘ona, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Uyqu organizmning neyroendokrin gomeostazini ta’minlovchi muhim fiziologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Uyqu davomiyligining qisqarishi va surunkali uyqusizlik gipotalamo-gipofizar-buyrak usti bezi tizimining funksional holatiga ta’sir ko‘rsatib, stressga javob mexanizmlarining faollashishiga olib keladi. Mazkur tizimda gipofiz bezi markaziy o‘rin egallab, periferik endokrin bezlar faoliyatini boshqaruvchi trop gormonlarning sekretsiyasini ta’minlaydi. Shu sababli tajribaviy uyqusizlik sharoitida gipofiz bezida yuzaga keladigan strukturaviy o‘zgarishlarni o‘rganish uyqu yetishmovchiligi bilan bog‘liq neyroendokrin buzilishlarning morfologik asoslarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Tajribaviy uyqusizlik sharoitida kalamushlar gipofiz bezida yuzaga keladigan morfologik o‘zgarishlarni baholash.

Material va usullar. Laboratoriya kalamushlarida tajribaviy uyqusizlik modeli chaqirildi. Tajriba yakunida gipofiz bezi ajratib olinib, gistologik tekshiruv uchun fiksatsiya qilindi va parafin bloklar tayyorlandi. Gistologik kesmalar gematoksilin-eozin usulida bo‘yalib, yorug‘lik mikroskopida o‘rganildi. Adenogipofizning umumiy arxitektonikasi, xromofob, eozinofil va bazofil hujayralarning morfologik holati, ularning o‘zaro nisbati hamda sinusoidal kapillyarlardagi o‘zgarishlar baholandi.

Natijalar. Nazorat guruhida adenogipofiz parenximasi o‘ziga xos trabekulyar tuzilishga ega bo‘lib, sekretor hujayralar sinusoidal kapillyarlar atrofida tartibli joylashganligi kuzatildi. Parenximada xromofob hujayralar ustunlik qilib, eozinofil va bazofil xromofil hujayralar ular orasida tarqoq holda joylashgan. Tajribaviy uyqusizlik sharoitida adenogipofizning hujayraviy tarkibida sezilarli morfofunksional o‘zgarishlar aniqlandi. Xromofob hujayralar sonining kamayishi va eozinofil hujayralar soni taxminan ikki marta, bazofil hujayralar soni esa bir yarim marta ortdi. Natijada xromofob va xromofil hujayralar nisbati nazoratdagi 2,9:1 dan 1,2:1 gacha kamaydi. Ushbu o‘zgarishlar adenogipofiz sekretor hujayralarining faollashuvini ko‘rsatdi.

Shuningdek, tajriba guruhida parenxima hujayralarining xususiyatlari va joylashish zichligida geterogenlik, ayrim sohalarda sinusoidal kapillyarlarning notekis kengayishi hamda qon bilan to‘lishi kuzatildi. Mikrosirkulyator o‘zandagi mazkur o‘zgarishlar adenogipofizning kuchaygan funksional yuklamaga moslashuv reaksiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bazofil hujayralar ulushining ortishi stressga javob beruvchi gipotalamo-gipofizar-buyrak usti bezi tizimining faollashuvi bilan bog‘liq morfologik belgi sifatida baholandi.

Xulosa. Tajribaviy uyqusizlik kalamushlar adenogipofizida hujayraviy tarkib va mikrosirkulyator o‘zanning morfofunksional qayta tashkil topishiga olib keladi. Xromofob hujayralarning kamayishi, eozinofil va bazofil hujayralarning ko‘payishi, xromofob/xromofil nisbatining 2,9:1 dan 1,2:1 gacha pasayishi, shuningdek sinusoidal kapillyarlardagi o‘zgarishlar adenogipofiz sekretor faolligining kuchayganligini ko‘rsatuvchi morfologik belgilar sifatida qaralishi mumkin. Aniqlangan o‘zgarishlar uyqu yetishmovchiligi sharoitida organizmning stressga moslashuv reaksiyalarida gipofiz bezining muhim o‘rin tutishini morfologik jihatdan asoslaydi.